O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi
№ БД-60220400
17.09.2024

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ prof. R.I.Xalmuradov
2024 yil “___”_____

Numizmatika va epigrafika

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	220 000 – Gumanitar fanlar (Tillardan tashqari)
Ta’lim yo‘nalishi:	60220400 – Arxeologiya

Fan/modul kodi NE1406	O'quv yili 2025-2026	Semestr 4	ECTS – Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4

	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami (soat)
1.	Numizmatika va epigrafika	62	118	180

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad - Talabalarga numizmatika va epigrafika fanining shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari, arxeologik ashyolar o'tmish tariximizni, madaniyatimizni o'rganishda tarixiy manba ekanligi haqidagi chuqur bilim berish va o'rgatishdan iborat.Talabalarga O'rta Osiyoda arxeologiyasi tarixining asosiy bosqichlari, moddiy va ma'naviy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari haqida bilim ko`nikmasini shakillantirishdan iborat. Tarixiy manbalar orasida tangalar alohida o'rin egallaydi. Ular boshqa manbalarga nisbatan ko'proq informativligi bilan ajralib turadi. Ushbu dastur «Numizmatika va epigrafika» fanining predmeti, maksad va vazifalari, shuningdek, talabalarda fan haqidagi bilimlarni qaror topshirish mavjud ilmiy adabiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish, fan bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Fanning vazifasi - «Numizmatika va epigrafika» fanining vazifasi - talabalarga fanning nazariy va amaliy masalalarini o'rgatishdan iborat. Dasturda berilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi. Shuningdek, fanning dolzarb masalalari mustaqil ish sifatida talabalarga o'zlashtirish uchun beriladi. Dars mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik- texnologiyalar va boshqa uslublarni qo'llash orqali olib boriladi. Fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovasiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Kirish. Fanning maqsad va vazifasi, fan sifatida shakllanishi va metodlari

Numizmatika fani va uning vazifalari. Numizmatikaning paydo bo'lishi va uning fan sifatida rivojlanishi. Ilmiy numizmatikaning qaror topishida avstraliyalik olimlar Y.Ekkel, Y.Mayder, polyak olimi I.Lelevin, olmon olimi V.Renikman va fransuz olimlari A.Anjel va R.Serryurlarning o'rni. Numizmatikani tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi. O'zbekistonda numizmatika fanining shakllanishi va rivojlanishi. O'zbekiston numizmatikasining rivojlanishida o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shgan olimlar: M.Ye.Masson, V.M.Masson, G.A.Pugachenkova, Ye.A.Davidovich, O.I.Smirnova, B.I.Vaynberg, V.G.Lukonin, Ye.V.Zeymal, E.V.Rtveladze, B.D.Kochnev, T.Ernazarova, I.To'xtayev, Sh.R.Pidayev va boshqalar. Bugungi kunda o'zbek numizmatikasi oldida turgan vazifalar va muammolar. O'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishda qadimiy tangalarning o'rni. Tangalar paydo bo'lgunicha turli xalqlarda ayrboshlash vositasi bo'lib xizmat qilgan narsalar. Tanga sifatidagi ayrboshlash vositasi zarurati paydo bo'lishining asosiy sabablari.

Qadimgi Yunoniston va Rim tangalari

Mavzu tarixshunosligi. Qadimgi Yunonistondagi shahar davlatlar. Aleksandr Makedonskiy va Ellin davlatlari. Qadimgi Yunoniston tangalarini davrlashtirish. Yunonistondagi asosiy og'irlik o'lchov sistemalari va qiymat belgilari. Solon islohoti. Talant, mina, stater, tetradraxma, draxma, obol. Eng qadimgi davrdagi Yunonistonda zarb qilingan oltin va kumush qotishmasidan iborat-elektoron va kumush tangalar. Tangalarda yozuvlaring paydo bo'lishi. Yunoniston tangalarining ikonografiyasi. Tangalardagi rasmlar va ularda ifodalangan ramziy belgilar. Moneta-tanga so'zining kelib chiqishi to'g'risida Qadimgi Rim afsonasi. Qadimgi Rim tangalarining qiymat belgilari: denariy, viktoriat, kvinariy, sestersiy. Rim og'irlik o'lchov birliklari: funt, unsiya, sisilik, draxma. Qadimgi Rimda zarb qilingan tangalar va ularda tasvirlangan rasmlar. Mis tangalarqadimgi Rim tangalarining asosi. Rim tangalariga Qadimgi Yunoniston tanagalarining ta'siri. Rimda kumush tangalarni zarb qilishning yo'lga qo'yilishi. Gay Flaminiyning miloddan oldingi 218 yilda yilda o'tkazgan islohoti va Rim tangalarining vaznining pasaytirilishi. Rim respublikasi davrida zarb qilingan oltin tangalar. Qadimgi Italiya tabiati va aholisini o'rganishda tangalardan foydalanish. Rim Respublikasining inqirozi davrida zarb qilingan tangalar. Yuliy Sezar va Pompey tangalari. Rim saltanati davrida zarb qilingan tangalar. Rimda muntazam oltin tangalar zarb qilishning yo'lga solinishi. Kumush denariylarining inqirozi davrida zarb qilingan tangalar.

davrida zarb qilingan tangalar. Qadimgi Rim madaniyatini o'rganishada tangalarning ahamiyati.

Qadimgi Sharq tangalari: Eron sosoniylari, sosoniy kushonshohlar va Turk xoqonligi tangalari

Mavzu tarixshunosligi. Ahmoniylar saltanati. Axmoniylar saltanatida tanga pullarni paydo bo'lishida yunon tangalarining o'rni. Doro I tomonidan tanga pullarning zarb qilinishini yo'lga qo'yilishi. Oltin tanga-darik, kumush tanga-sikllarni bozor muomalasiga chiqarilishi. Ahmoniy shahanshohlari tangalarining ikonografiyasi. Tangalarning vaznlari. Saltanat iqtisody hayotini o'rganishada tangalarning ahamiyati. Parfiya saltanati. Arshakiy shohlari tomonidan zarb qilinga ilk Parfiya tangalari. Parfiya tangalarining ikonografiyasi. Parfiya tangalarining ikonografiyasini qaror topishida yunon tangalarining o'rni. Mustaqil Parfiya davlati kuchayib borishining tangalarda o'z ifodasini topishi. Arshak II va Arshak II larning kumush dinorlari. Tanga zarb qilishdagi uzilish va buning sabablari. Parfiya shahanshohi Mitridan I tomonidan saltanatda tanga zarb qilinishini yana yo'lga qo'yilishi. Mitridat I, Fraat I, Mitridan I, Orod I tomonidan zarb qilingan tangalar. Parfiya shahanshohlarining shajarasini o'rganishda tangalarning ahamiyati. Sosoniylar saltanati. Sosoniy shahanshohlari tomonidan saltanatda tangalar zarb qilinishining yo'lga qo'yilishi. Sosoniylar tomonidan qabul qilingan tanga qiymatlari va vazn sistemalari. Oltin tanga-dinor, kumush tanga-draxma, mis tanga-tetradraxma. Sosoniylar tangalarining ikonografiyasi. Ardasher I, Shopur I, Shopur II, Varaxran II, Feruz tangalari. Sosoniylar shajarasini o'rganishda tangalarning ahamiyati.

Ilk o'rta asrlar Sug'd va Choch tangalari

Qadimgi So'g'diyonada tovarpul munosabatlarining shakllanishida Baqtriyaning o'rni. So'g'diyonadan topilgan eng qadimgi tangalar. Kitob va Buxoro xazinalari. Mahalliy So'g'diyona tangalarining qaror topishi. "Girkad" tangalari. Girkad tangalarining ikonografiyasi. Yevtidem tangalariga taqlid qilib zarb qilingan tangalar va ularda so'g'd yozuvlarining paydo bo'lishi. Qadimgi davrdagi So'g'diyona iqtisodiy hayotini o'rganishda tangalarning ahaiyati. Qadimgi Xorazmda tovar-pul munosabatlarining vujudga kelishi. Yevkratid tangalariga taqlid qilib zarb qilingan tangalar. Mahalliy sulola tamg'asi bosilgan Kushon tangalari. Haqiqiy Xorazm tangalarini zarb qilinishining yo'lga qo'yishi va ularning ikonogrfiyasi. Tanga pullar zarb qilishni yo'lga quygan hududlarning kengayishi. III-IV asrlardagi Kesh, Choch va Buxoro tangalari.

Ilk o'rta asrlar Toxariston va Ustrushona tangalari

Mavzu tarixshunosligi. Eftalitlar davlati va Turk hoqonligi. Ilk o'rta asrlada vujudga kelga ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarni tanga pullarga ta'siri. O'z tanga pullarini zarb qilishni yo'lga qo'ygan mayda hokimliklar va mulklarning ko'payishi. Sosoniylar, Vizantiya va Xitoy tangalarining mahalliy tangalar ikonografiyasiga ta'siri. Buxorxudod, Samarqand ixshidi, Ustrushona afshini, Choch hokimlari, Chachanxudod va termizshohlar tomonidan zarb qilingan tangalar. Ilk o'rta asrlardagi Xorazm tangalari. Turk tangalari. Farg'onada tovar pul munoabatlarining shakllanishi va rivojlanishi. Tangalar zarb qilish huquqiga ega bo'lgan shaharlar. O'zbekiston tarixi va madaniyatini o'rganishda ilk o'rta asr tangalarining ahamiyati.

IX-XIII asrlarda Movarounnaxr tangalari

Somoniylar hokimligini mustaqillik sari harakatini tangalarda ifodasi. Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonda markazlashgan Somoniylar davlatining qaror topishi. Ismoli ibn Axmadning pul islohoti. O'zbekiston tarixida birinchi marta oltin tanga-dinorlarni muntazam zarb qilinishining yo'lga qo'yilishi va uni davlatning siyosiyiqtisodiy hayotidagi ahamiyati. Somoniylarning oltin va kumush tangalarini xalqaro savdodagi o'rni. Fels-ichki bozordagi asosiy tovar ayrboshlash vositasi. Somoniylar davlatidagi asosiy zarbxonalar. Qalbaki tangalar. Somoniylar tangasi noyob husnixat namunasidir. Qoraxoniylar davlati. Qoraxoniylar davrida zarb qilingan tangalar va ular ko'rinishidagi o'zgarishlar. "Kumush inqirozi"ni tangalarga ta'siri. Farg'onada mis dirxamlarning zarb qilinishi. XII asr o'rtalarida Movarounnahrning tanga bozorida yuz bergan o'zgarishlar. Kumush suvi yugurtirilgan dirxam va oltin- dinor tangalarni zarb qilinishining yo'lga qo'yilishi. Oltin tangalarni mayda bo'laklarga bo'lib foydalanishning sabablari. Qoraxoniylar davrida tanga zarb qilgan asosiy shaharlar. Qoraxoniylarning siyosiy tarixini yoritishda tangalar muhim manbadir. O'zbekistonda G'aznaviylar, g'uriylar va saljuq sultonlari tomonidan zarb qilingan tangalarning topilishi va uning sabablari. XI-XII asrda Xorazm bozorlaridagi ahvol. Muhammad Xorazmshoh tomonidan Xorazmda muntazam oltin, kumush va mis tangalarini zarb qilishning yo'lga qo'yilishi. Muhammad Xorazmshoh hukumronligi davrida Movarounnahrda muomalada bo'lgan tangalar. XI-XIII asr boshlaridagi tangalarning o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishda ahamiyati.

Amir Temur va Temuriylar davri tangalari

Amir Temur davlatining qaror topishi. Temuriylar davlati. Amir Temur tomonidan zarb qilingan oltin, kumush va mis tangalar. Turli qiymatdagi kumush tangalarni bozorlarga chiqarilishi: yirik tangalar, nimtangalar va tangachalar. Amir Temur zamonida tangalar zarb qiluvchi asosiy shaharlar. 1428 yili Mirzo Ulug'bek

	tomonidan pul islohotining o'tkazilishi. Davlat hududida bir xil nusxadagi tangalar zarb qilishning joriy etilishi. Buxoro- tanga zarb qiluvchi yagona shahar. Amir Temur va temuriylar tangalarida turli shakldagi maxsus tamg'a- naqshlarning keng yoyilishi. A.Temur va temuriylar tangalari saltanat iqtisodiy hayotini ifoda etuvchi muhim manba. **Yozuvining paydo bo'lishi va uning epigrafiyadagi ahamiyati ahamiyati** Epigrafik yodgorliklar haqida axborotlar va ma'lumotlar yig'ishning dastlabki amaliyoti. Tarixiy-geografik, etnografik, yozma ma'lumotlar. Bitiklarni yig'ish, jamlash. Estampaj, fotosuratga olish, o'lchash, joyida etarli va muhim ma'lumotlarni kundalikka ko'chirib olish. Qo'shimcha axborot yig'ish. Yodgorlikning topografik tasnifi. Epigrafik ma'lumotlarning ikkinchi va eng asosiy ishlovi. Nusxa ko'chirilgan qog'ozdagi ma'lumotlarni fotosurat hamda kundalikdagi yozuvlar bilan muqoyasa qilish. Matnni asl holiga keltirish. Uni tahlil etish. Tarjima qilish. Dastlabki tarixiy ma'lumotlarni qo'lyozma asarlar bilan muvofiqlashtirish. Tarixiy adabiyotlardagi axborotlardan istofada olish. Barcha turdagi ma'lumotlarni bitiklardagi matnning mohiyatini aniqlashtirish uchun tizimlashtirish. Ilmiy tadqiqotning natijasi-ilmiy axborot, hisobot yoki maqolani tayyorlash. Janubiy va SHimoliy somiy alifbosi va uning evolyussiyasi haqida batey tili va yozuvi (IVasr) yangi sinay bitiglari(II-III asr) Imr ul-lays bitigi (Namara, 328 yil). 512 yilga oid Zabad bitigi.710 yilga oid Xaron bitigi. Umm al-jimal bitigi. Arab tilida kitob yozishning boshlanishi. **Qur'oni Karim-arab adabiy tilining muhim, asosiy namunasi sifatida va arab yozuvi** Qur'oni Karimning ko'chirilishi. Qur'oni Karim-arab adabiy tiliningmuhim va asosiy namunasi sifatida. Ko'fa yozuvi. Nasx yozuvi. Bab al-vaddagi tosh bitig. VII-VIII asrlardagi yozuvlar va bitiglar. 643 yilgi alifbo. 704-709 yillarga oid alifbo. Divashtich maktubi alifbosi (1718-719 yillar). Misr hukjjatiga xos alifbo (730). Qutayba va uning arab yozuvi yangi turlarini ishlab chiqishi. Sulus yozuvi. Jalil, rayhoniy, nasxi, muhaqqaq, riqo', ta'liq, yoquti. Ibn Muqla. Nasx va ta'liq. Nasta'liq. SHikasta, devoniy. Arab yozuvining turlari haqida **X-XII asrlar epigrafikasi va unlarning tarixni o'rganishdagi ahamiyati** Samarqandning sirlangan sopol idishlaridagi bitiklar, umumiy ta'rifi. YOzuv turlari. Aforizmlar va ularning tasnifi. Binkent sirlangan sopol idishlaridagi bitiklar. Ularning Samarqanddagi epigrafik ashyolar bilan o'xshash va farq qiluvchi jihatlari. Movarounnahrning boshqa hududlaridagi xuddi shu xildagi bitiklar ta'rifi. Samarqand muzeyidagi qayroqtoshlar ta'rifi. **O'rta asrlar epigrafik yodgorliklari va qabrtoshlardagi bitiklar, unlarning tarixni o'rganishdagi ahamiyati** XIV-XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda xattotlik, sangtaroshlik san'ati haqida. Temuriylar davri turli xildagi bitiglar tasnifi. Me'moriy inshootlardagi bitiglar. Shohi Zinda. Ahmad YAssaviy. Bibixonim. Go'ri Amir. Oqsaroy. Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi. Keshdagi Gumbazi Sayidon. Ko'k Gumbaz. Hazrati Imom me'moriy masjidlari. Chashmai Ayub mozoridagi bitiglar. Qartosh bitiglar.Go'ri Amir.Amir Temur qabrtoshidagi bitiglar sharhi. Shohrux Mirzo sulton Muhammad, Mirzo Ulug'bek, Mironshoh qabrtoshidagi bitiglar ta'rifi. Cayyid Baraka qabrtoshi yozuvlari. Abul Maolin epitafiyasi. Sulton Ibrohim ibn Amir Jahongirshoh qabrtosh bitigi. Ali Asqar, Dilshod og'o, Amir Hamza va Abuka epitafiyalari. Metall ashyolar, qurollardagi bitiglar tafsiloti. Temuriylar davri bitigining tili. Arabcha matnlar. Fors-tojikcha matnlar. Marsiyalar. Xattot-sangtaroshlarning savodxonlik darajasi. **Temuriylar davrda Toshkent, Farg'ona, Xorazm epigrafik yodgorliklari va unlarning tarixni o'rganishdagi ahamiyati** Toshkent, Farg'ona, Xorazm hududidagi epigrafik yodgorliklar. Qa'lai Dabusiya, Qarshi va uning tevarak atrofidagi bitiglar. Shahrisabz epigrafik yodgorliklari. Turkiston epigrafikasi. Safaviylar davri metall bitiglari. Qabr qayroqlar. Bulg'or epitafiyalar. Qirg'iston va Janubiy Qozog'iston qabrtosh bitiglari. Kavkazorti epigrafik yodgorliklari. **Temuriylar va Shayboniylar davr epigrafik yodgorliklari va unlarning tarixni o'rganishdagi ahamiyati** Samarqand bitiglari. Daxmai Shoxon. Shohi Zinda. Abdullaxon va Modarixon madrasalari peshtoqidagi bitiglar. Qabrtosh bitiglari. Buxoro me'moriy bitiglari. Qabrtosh bitiglari. Dunyoviy shaxslarning epitafiyalari. Islom peshvolariga qo'yilgan qabrtoshlar.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

S1	Qadimgi Yunoniston va Rim tangalari
S2	Qadimgi Sharq tangalari: Eron sosoniylari va sosoniy kushonshohlar tangalari
S3	Turk xoqonligi tangalari
S4	Ilk o'rta asrlar Sug'd va Choch tangalari
S5	Ilk o'rta asrlar Toxariston va Ustrushona tangalari

S6	Arablar davri Movarounnahr tangalari
S7	IX-XIII asrlarda Movarounnahr tangalari
S8	Amir Temur va Temuriylar davri tangalari
S9	Yozuvining paydo bo'lishi va uning epigrafiyadagi ahamiyati ahamiyati
S10	Qur'oni Karim-arab adabiy tilining muhim, asosiy namunasi sifatida va arab yozuvi
S11	X-XII asrlar epigrafikasi va unlarning tarixni o'rganishdagi ahamiyati
S12	O'rta asrlar epigrafik yodgorliklar va unlarning tarixni o'rganishdagi ahamiyati
S13	O'rta asrlar qabrtoshlardagi bitiklar va unlarning tarixni o'rganishdagi ahamiyati
S14	Temuriylar davrda Toshkent, Farg'ona, Xorazm epigrafik yodgorliklari va unlarning tarixni o'rganishdagi ahamiyati
S15	Temuriylar va Shayboniylar davr epigrafik yodgorliklari va unlarning tarixni o'rganishdagi ahamiyati

IV. MUSTAQIL TA'LIMNI BAJARISH BO'YICHA TALABLAR:

Mustaqil ta'lim maavzularining kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari. Tadqiqot obyekti va metodlari
2.	Epigrafikada manbalarni aniqlash va ishlov berish
3.	Arab yozuvining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Uning turlari
4.	Epigrafik matnlar va ular ustida ish yuritish
5.	Epigrafik yodgorliklarni o'rganishda qadimgi yozuvlarning o'rni va ahamiyati
6.	Qadimgi Sharq hududlari epigrafik yodgorliklari
7.	Qadimgi G'arb hududlari epigrafik yodgorliklari
8.	O'rta Osiyoning qadimgi bitiklari va epigrafik yodgorliklari
9.	Urxun-Enasoy yodgorliklari va ularning o'rganilishi
10.	XI-XII asrlar epigrafik yodgorliklari
11.	XII-XIV asrlar epigrafik yodgorliklari
12.	Amir Temur va temuriylar davri epigrafik yodgorliklari
13.	Shayboniylar davri epigrafik yodgorliklari
14.	XVII-XIX asrlarga oid epigrafik yodgorliklar
15.	Ko'histon qayroqtoshlaridagi bitiklar (XI-XIX asrlar)
16.	Ozarbayjon va Shimoliy Kavkaz tosh bitiklari (XIV-XIX asrlar)
17.	Mustaqillik yillarida epigrafika fanining yutuqlari va taraqqiyoti
18.	Bitiklarning arxeologiya fani taraqqiyotidagi o'rni
19.	Jahonning ko'zga ko'ringan epigraf olimlari faoliyati
20.	O'zbekistonning ko'zga ko'ringan epigraf olimlari faoliyati
21.	Qadimgi Yunoniston tangalari
22.	Qadimgi Rim tangalari
23.	Qadimgi Sharq tangalari
24.	A.Makedonskiy davlati tangalari
25.	Salavkiylar tangalari
26.	Yunon-Baqtriya podsholigi tangalari
27.	Qadimgi Xorazm tangalari
28.	Qang' davlati tangalari
29.	Kushonshoxlar tangalari
30.	Sosoniylar tangalari
31.	Eftaliylar tangalari
32.	Garbiy Turk xoqonligi tangalari
33.	Ilk o'rta asrlar Sug'd tangalari
34.	Ilk o'rta asrlar Choch tangalari
35.	Ilk o'rta asrlar Tohariston tangalari
36.	Ilk o'rta asrlar Ustrusona tangalari
37.	IX-X asrlarda Movarounnaxr tangalari
38.	Xorazmshohlar tangalari
39.	XI-XIII asrlarda Movarounnaxr tangalari
40.	Somoniylar davrida tanga zarb qilingan asosiy shaharlar

41.	Chig'atoy ulusi tangalari
42.	Amir Temur va Temuriylar davri tangalari
43.	Shayboniylar davri tangalari
44.	Ashtarxoniylar davri tangalari
45.	Xiva xonligi davri tangalari
46.	Buxoro amirligi davri tangalari
47.	Qo'qon xonligi tangalari
48.	Chor Rossiyasi davrida Turkiston o'kasi tangalari
49.	Sobiq ittifoq davrida O'zbekistonda ishlatilgan tangalar
50.	Mustaqil O'zbekiston Respublikasining milliy tangalari

"Numizmatika va epigrafika" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari ushbu fanning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu fan haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, Qadimgi davr tarixidan keyingi dastlabki davrlarda ilk o'rta asrlarining shakllanishi, dastlabki sivilizatsiyalarning paydo bo'lishi, Numizmatika fani va uning vazifalari, numizmatikaning paydo bo'lishi va uning fan sifatida rivojlanishi haqida talabalarda bilim va ko'nikmalarini shakllantirish e'tiborga olingan. Masalan, Qadimgi Yunonistondagi shahar davlatlarning rivoji, Yunonistondagi asosiy og'irlik o'lchov sistemalari va qiymat belgilari, talant, mina, stater, tetradraxma, draxma, obolkabi o'lchov birliklari, eng qadimgi davrdagi Yunonistonda zarb qilingan oltin va kumush qotishmasidan iborat-elektoron va kumush tangalar, tangalarda yozuvlaring paydo bo'lishi, yunoniston tangalarining ikonografiyasi, tangalardagi rasmlar va ularda ifodalangan ramziy belgilar va davlatchiligiga, uning rivojiga ta'siri batafsil yoritib beriladi. Bundan tashqari, Qadimgi So'g'diyonada tovarpul munosabatlarining shakllanishida Baqtriyaning o'rni, So'g'diyonadan topilgan eng qadimgi tangalar, Kitob va Buxoro xazinalari, mahalliy So'g'diyona tangalarining qaror topishi dars mashg'ulotlarida o'tilishi ishlab chiqilgan. Bunda, ham xronologik tartib, ham geografik tartib inobatga olingan. Shu mazmunda mustaqil ta'limda nazarda tutilgan mavzular bo'yicha talabalar mustaqil ravishda izlanishlar olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Mamlakat tarixida kechgan asosiy tarixiy voqeliklar, jarayonlar, hukmron sulolalar to'g'risida tegishli ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • tarixiy voqea va hodisalar natijalarini qiyosiy taqqoslash orqali ulardan xulosalar chiqarish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** • tarixiy voqealar va hodisalarga nisbatan o'z nuqtai nazariga, mustaqil fikriga va munosabat bildira olish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • Talabalarning tarixiy fanlarni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or usullari foydalanish, yangi informatsion - pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar, jadvallardan foydalaniladi. • Dasturda berilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi. Shuningdek, fanning dolzarb masalalari mustaqil ish sifatida talabalarga o'zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyaning «bumerang», «aqliy hujum» singari uslublari orqali darslar olib boriladi. • Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilgan: • Zamonaviy interfaol metodlari, Bingo, blis, ajurali arra, nilufar guli, menyu, algoritm, munozara, o'z-o'zini nazorat. "Aqliy hujum", "Klaster", "Bumerang", "Rezyume", "Blis-o'yin", FSMU, "Agar men... ", "Muammo", 3x4, "Loyiha", "Labirint", "Charxpalak", 3 ta B, "Qora quti", "Insert", "Burchaklar", "5-si ortiqcha", "Kalit so'zlar", "Skrabey", "Sinkveyn" (Internet resurslari, slaydlar), ko'rgazmali vositalar (xaritalar, jadvalar, sxemalar va bosh.) pedagogik texnologiyalarini kullash nazarda tutiladi.

5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Тухтиев И. Тангалар тилга кирганда. Т.,1989. 2. Эрназаров Т. Тангалар ўтмиш даракчилари. Т., 1977. 3. Бабаяров Г. Древние тюрские монеты Чачского оазиса (VI-VIII вв. н.э.). Т., 2007. 4. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. М. 1977. 5. Кочнев Б.Д. Мусульманский чекан Уструшаны (по материалам монетного чекана Уструшаны и Заамина) // Древний Заамин (история, археология, нумизматика, этнография). Ташкент, 1994 6. Маъсудали Хакимжон Хатти муаллимий. Араб ёзувининг вужудга келиши ва турлари. Т.Мехнат. 1991 7. Мухтаров А. Эпиграфические памятники Кухистана . кн.1-11, Д., Дониш 1980 8. Мухтаров А. Резчики из Ягноба. Памяти А.А. Семенова Душанбе: Дониш, 1980 **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. Елизаветин Г. Пулнома. Ташкент, 1979. 2. Нумизматика Центральной Азии. Вып. III. Т., 1998 3. Нумизматика Центральной Азии. Вып. IV Т., 1999. 4. Нумизматика Центральной Азии. Вып. V. Т., 2001. 5. Ишанханов С.Х. Каталог монет Коканда XVIII-XIX вв. Т., 1978 6. Нумизматика Узбекистана. Т., 1980. 7. Беляков А.С. Нумизматика. Введение в специальные исторические дисциплины. М., 1990. 8. Пидаев Ш.Р. Танглар - давр кўзгуси. Фан хакида сухбатлар. № 10, Т., 1984. 9. Археология, нумизматика и эпиграфика средневековой Средней Азии. Самарканд, 2000. 10. Елизаветин Г. Пулнома. Ташкент,1979. 11. Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь. Энциклопедический справочник. Т., 1999. 12. Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии. М., 1983. 13. Atakhodjaev A. Notes de numismatique samanide // Studia Iranica. T.31, 2002, fascicule 2. 14. Sylloge Numorum Arabicorum Tübingen. Balkh und Die Landschaften am Oberen Oxus. XIVc. Hurasan III. Bearbeitet vom Florian Schwarz. Tübingen-Berlin. 2002 15. Аскаров А.А., Ширинов Т.Ш. Ранная городская культура эпохи бронзы юга Узбекистана.Самарканд, 1993. 16. Аванесова Н.А. Эпоха бронзы Средней Азии. Ч.И. Учебное пособие. Самарканд. Изд. Сам ГУ. 1988. Пдф 17. Беленицкий А.М. Бентович И.Б, Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л. 1973. 18. Джуракулов М.Д. Аванесова Н.А. Историография эпохи бронзы Средней Азии. Учебное пособие. Самарканд: Изд.СамГУ. 1983. пдф. 19. Древнейшие государства Кавказа и Средняя Азия. Отв. ред. Г.А. Кошеленко. М., "Наука" 1985. 20. Лунина С.Б. Археология Средней Азии. Учебное пособие. Ташкент. 1986. пдф. 21. Рындина Н., Дегтярева А. Энеолит и бронзовый век. Учебное пособие. М. 2002. Джву 22. Средняя Азия и Дальний Восток в эпоху средневековья. Средняя Азия в раннем средневековье. Отв. ред. Г.Л. Брыкина. М., «Наука» 1999. 23. Sayfullayev B. O'rta Zarafshon voxasi tosh davri madaniyatlari. Samarqand. 2022. 24. Ergashev O. Ko'kayoz tosh davri ustaxonalari. Samarqand.2014. **Axborot manbalari (saytlar):** 1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali. 2. www. search. uz/eng. 3. www. Tashkent. ORG/uzland 4. www. uzbekworld. com.
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy кengashining 2024-yil 29 avgust 1 son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:**

	N.U.Xolmatov – SamDU, "Arxeologiya" kafedrasi mudiri, tarix fanlari doktori, dotsent. R.B.Berdiyev – SamDU, "Arxeologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi.
9.	**Taqrizchilar:** O.T.Ergashev – Arxeologiya kafedrasi mudiri, dotsent (ichki) A. Rajabov – Madaniy meros agentligi Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti dotsenti (tashqi)

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais: **prof. N.O'.Xolmatov**

Ekspert guruhi a'zolari: **dots. O.T.Ergashev**

Kafedra mudiri: **dots. O.T.Ergashev**

Kengash raisi: **prof. D.M.Djuraqulova**

O'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor: **prof. A.S.Soleyev.**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti 60230400-arxeologiya yo'nalishi o'quv rejasidagi «Numizmatika va epigrafika» fanining fan dasturiga

TAQRIZ

Tarixiy manbalar orasida tangalar alohida o'rin egallaydi. Ular boshqa manbalarga nisbatan ko'proq informativligi bilan ajralib turadi. Ushbu sillabus «Numizmatika va epigrafika» fanining predmeti, maksad va vazifalari, shuningdek, talabalarda fan haqidagi bilimlarni qaror topshirish mavjud ilmiy adabiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish, fan bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Tangalar davlatlarni shakllanish va rivojlanish jarayonlarini, ularning chegaralarini, shohlarning nomlari va hukumronlik qilgan yillarini, davlat mafkurasini, xalqaro madaniy va iqtisodiy aloqalarni, tabiatini, aholisini, qishloq xo'jaligini, hunarmandchilik sohalarini, qurol-yarog' tarixini, kiyim-boshlarini o'rganishda muhim mazmun kasb etadi. Turli tarixiy va arxeologik yodgorliklarni "yoshini" aniqlashda ham tangalar muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, «Numizmatika va epigrafika» fani talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizasiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

Shuningdek, ushbu sillabus «Numizmatika va epigrafika» fani haqidagi bilimlarni mavjud ilmiy adabiyotlar va nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish, fan bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar, kadrlar buyurtmachilarining fikr, talab va takliflari kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda «Numizmatika va epigrafika» fanining shakllanishi va taraqqiyoti, uning tarixiy fanlarni o'rganishdagi o'rni, jahon hamda, mamlakatimiz hududida tovar-pul munosabatlarining shakllanishi haqida bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

«Numizmatika va epigrafika» fani sillabusining vazifasi - talabalarga fanning nazariy va amaliy masalalarini o'rgatishdan iborat. Sillabusda berilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi. Shuningdek, fanning dolzarb masalalari mustaqil ish sifatida talabalarga o'zlashtirish uchun beriladi. Dars mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik- texnologiyalar va boshqa uslublarni qo'llash orqali olib boriladi. Shuningdek, ushbu sillabus «Numizmatika va epigrafika» fani haqidagi bilimlarni mavjud ilmiy adabiyotlar va nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish, fan bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar, kadrlar buyurtmachilarining fikr, talab va takliflari kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda «Numizmatika va epigrafika» fanining shakllanishi va taraqqiyoti, uning tarixiy fanlarni o'rganishdagi o'rni, jahon hamda, mamlakatimiz hududida tovar-pul munosabatlarining shakllanishi haqida bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Mazkur «Numizmatika va epigrafika» fan sillabusi xozirga kun OTM talablariga to'liq mos keladi.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti
Arxeologiya kafedrasi mudiri: (PhD), dotsent **O.T.Ergashev**

TARIX FAKULTETI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti 60220400-arxeologiya yo'nalishi o'quv rejasidagi «Numizmatika va epigrafika» fanining sillabusiga

TAQRIZ

Ushbu sillabus «Numizmatika va epigrafika» fanining predmeti, maksad va vazifalari, moddiy va ma'naviy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatishdan iborat. Sillabusda Tangashunoslikning muxim masalalari yoritilgan bo'lib, mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini chuqurlashtirish, tangasunoslik fanning rivojlanish qonuniyatlari va tamoyillari, fanning tarkibi va tuzilishi, uni tashkil qilish va boshqarish, fanning tasnifi kabi masalalar ahamiyati ochib beriladi.

Ushbu sillabusda Numizmatika va epigrafikaning paydo bo'lishi va uning fan sifatida rivojlanishi, Numizmatika va epigrafika ning tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi va O'zbekiston numizmatikasining rivojlanishida o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shgan olimlar: M.Ye.Masson, V.M.Masson, G.A.Pugachenko, Ye.A.Davidovich, O.I.Smirnova, B.I.Vaynberg, V.G.Lukonin, Ye.V.Zeymal, E.V.Rtviladze, B.D.Kochnev, T.Ernazarorva, I.To'xtayev, Sh.R.Pidayev va boshqalarning ijodiy faoliyati o'rganiladi.

Sillabusda bugungi kunda o'zbek numizmatikasi oldida turgan vazifalar va muammolar, O'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishda qadimiy tangalarning o'rni, tangalar paydo bo'lgunicha turli xalqlarda ayrboshlash vositasi bo'lib xizmat qilganligi, tanga sifatidagi ayrboshlash vositasi zarurati paydo bo'lishining asosiy sabablari, tanga pullardan asrlar davomida almashtirish vositasi sifatida foydalanib kelinishning sabablari keltiriladi.

Tangalarda mujassamlashgan Kichik Osiyodagi Lidiya davlati va va Egina oroli tangalari zarb qilishni yo'lga qo'ygan shaharlar. Birinchi tangalarning qiymati va ularda tasvirlangan rasmlar. Tangalarda ifodalanga qadimiy shaharlarning ramziy belgilari.

Talabalar Numizmatika fanini o'zlashtirishlari uchun pulning beshta muhim vazifasini: narx qiymati, ayrboshlash, xazinalar to'planishi, to'plash vositasi va "dunyo puli" ekanligini, dastlabki tangalarning ixtiro qilinishini, tangalarning asosiy belgilari: tanga tili, "avers"- tanganing old tomoni, "revers"-tanganing orqa tomoni, yozuv, tanga maydoni, tanga hoshiyasi, tanga qirrasi, tanga qiymati, tanga huquqi, tanga zarb qilish usullari va ularni takomillashtirish yo'llarini bilishlari muhim ahamiyatga egadir. Tangalarda mujassamlashgan Kichik Osiyodagi Lidiya davlati va va Egina oroli tangalari zarb qilishni yo'lga qo'ygan shaharlar. Birinchi tangalarning

qiymati va ularda tasvirlangan rasmlar. Tangalarda ifodalanga qadimiy shaharlarning ramziy belgilari.

Mazkur «Numizmatika va epigrafika» fani sillabusi xozirga kun OTM talablariga to'liq mos keladi va uni amaliyotga tadbiq etsa bo'ladi.

Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi

KADRLAR BO'LIMI

A.Radjabov

ASLIGA TO'G'RI